

BUKMEKERLIK FAOLIYATINING SPORT MUHLISLARIGA TA'SIRI
VA MUNOSABATI

Usmanov Yorqinbek To'liqinali o'g'li

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-kurs talabasi

yorqinbekusmonov48@gmail.comDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21902143>

Annotatsiya: Mazkur maqola virtual makondagi axborot manipulyatsiyalarining totalizatorlik shaklidagi tahdidlari tahlil qilingan. Asosan sport musobaqalariga yo'naltirilgan ushbu manipulyatsiyalarning muxlislar ruxiy muvozaanatiga ta'siri o'rganilib, xuloslar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: demo xisoblar, virtual qaramlik, totalizator, ludomaniya, jamoaviy sport turlari, manipulyativ reklamalar, muhlislik yondashuvi, tavakkalchilik.

Abstract: This article analyzes the threats posed by information manipulation in the virtual space, specifically in the form of betting and pool-based wagering (totalizators). It examines the impact of such manipulations—primarily centered on sports competitions—on the psychological well-being of fans and formulates recommendations based on the findings.

Keywords: demo accounts, virtual addiction, betting/totalizator, ludomania, team sports, manipulative advertising, fan perspective, risk-taking.

Аннотация: В статье анализируются угрозы, связанные с манипулированием информацией в виртуальном пространстве, в частности в сфере ставок на спорт и тотализаторов. Рассматривается влияние подобных манипуляций (преимущественно вокруг спортивных соревнований) на психологическое благополучие болельщиков, а также формулируются рекомендации на основе полученных результатов.

Ключевые слова: демо-счета, виртуальная зависимость, ставки/тотализатор, лудомания, командные виды спорта, манипулятивная реклама, восприятие болельщиков, склонность к риску.

Sport kabi ulkan auditoriyasiga ega bo'lgan faoliyat turlari biznes marketinglar targ'iboti, brendlar va rekord miqdordagi chiptalar sotuvi bilan ulkan moliyaviy imkoniyatlar taqdim etadi. Biroq virtual olamda bunday an'anaviy daromad manbalarini ham ortda qoldira oladigan yana bir soha - bukmekerlik avj olmoqda. Totalizatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar amalda sportga yaqin yillarda kirib kelmagan va ilk sport musobaqalari tarixida ham bunday tavakkalga asoslangan o'yin sxemalari birgalikda rivojlanib kelgan. Uning ma'naviy ildizi bo'lgan qimor o'yinlari Antik davrdan beri ma'lum. Gladiatorialar va hayvonlar o'rtasidagi qonli musobaqalarga pul tikib daromad olishga intilgan o'sha davrning "bukmekerlari" tomonidan bunday faoliyat rag'batlantirib borilgan. Dastlabki bukmekerlik tashkiloti rasman Britaniyada ish boshlagan deb hisoblanadi. Norman Barretga ko'ra: "Birinchi bukmeyker 1795-yildagi Nyumarketdagi Ogden bo'lgan"[1].

Xo'sh, unda avvaldan rivojlanib kelgan ushbu faoliyat qay tarzda transformatsiyalashdi bugungi global dunyoda? Buni bir qator murakkab omillar bilan izoxlash mumkin. Bugungi davr axborot jamiyatida eng serdaromad sohaga aylanish uchun odatiy qimor tashkilotchilari o'zlarining imidjlari va chorlov strategiyalarini shaklan o'zgartirib, mohiyyatini saqlab qoldilar. Ularga zamonaviy axborot imkoniyatlari istalgancha va cheksiz insonlarni o'zlariga jalb etish imkoniyatini berdi. Ular bunda sport muhlislarining ruxiy muvozanatini o'zgartiradigan xavfli tashviqot usullaridan foydalanishadi.

Qimor, tavakkalga asoslangan o'yin tashkilotchilari faoliyatlarini odatdagi nomlari bilan taqdim etmasdan buni "bukmekerlik", "stavka qilish" kabi yangi sinonimlar bilan almashtiradilar. Ular ishtirok etish ehtimolidagi insonlar ongiga bu tavakkal emasligi prognozlash asosida amalga oshiriladigan mantiqiy fikrlash ekanligini uqtiradilar. Amaliyotda bunday chorlovlar mantiqiy fikrlash bilan juda

zaif argumentlar bo'lib ko'rinsa-da, amaliyotda ruxiy muvozanati zaif, tahliliy-tanqidiy tafakkuri yetarlicha shakllanmagan insonlarni o'ziga undaydi. Bu argument Yuan H., Luo R., Wu Y., Zhao Z. kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida isbotini topgan [2].

Qiziquvchanlik bilan ham insonlar ongli ravishda bunday tuzoqqa tushib qoladilar. Bukmekerlar tavakkal asosidagi o'yinlarni neytral tavsiflash bilan ularning ongidan yutqazishga nisbatan xavotirni chiqarib tashlay oladilar. Platformadan qanday foydalanishni bilish, futbol yoki boshqa sport musobaqasidagi raqiblarning imkoniyatlarini chamalash orqali natijani maksimal aniqlikda topishga qaratilgan g'alaba illuziyasi xavfli tavakkalga boshlaydi.

AQSHning Viskonsin universiteti olimi Doktor Stiven A. Shilxabel asosli tarzda qimor o'yinlari mantiqiy fikrlash orqali qaror chiqarish qobiliyatini oshirmaslini isbotlab beradi. Uning da'volari pul tikuvchining huddi shaxmatchi kabi aql ishlatish bilan g'alaba qozonish haqidagi illuziyasini parchalashda real ruxiy o'zgarishlarni dalil qilib oladi. Dastlab subyektiv mulohaza bilan pul tikkan yangi ishtirokchilar tobora o'z tahlillariga shubha qila boshlaydilar. Xozirda ehtimoliy natija bashoratlariga ham aksariyat hollarda pul tikuvchilar o'z tahliliy qobiliyatlariga ishonmagan holda qarab Opta superkompyuteri yoki bukmekerlar taqdim etgan prognozlarga asoslanishadi. Ana shu xolat amalda ularda mantiqiy baholash asosidagi o'yindagi ishtirok etish haqidagi motivni yo'qqa chiqarib unga algoritmgacha ishoniladigan tavakkal tusini beradi.

Ammo muammo faqat puldagina ham emas, inson superkompyuterlar va SI algoritmlariga tobora tayanib borib, fikrlashda izlanuvchanlik va mulohazakorlik qobiliyatini yo'qotib boradi. Ruxiy buzilishlar, psixologik xurujlar insonning shaxsiyatini o'zgartiradi. Qimor o'yinlari bilan bunday aloqadorliklar ruxiy kasalliklarga aylanishi ehtimolligi, yutqazgan o'yinchining jinoyatchilikka moyillashuvi va ijtimoiy muxitga munosabati borasida zamonaviy tadqiqotlar davom etmoqda. Tadqiqotchi M.Zollinger inson ruxiy qaramligining xavfli ko'rinishlaridan biri bo'lgan qimorga tashnalik – ludomaniyani o'rgangan [4].

Alkogolizm kabi xozirgi kunda aksariyat hollarda sportga oid tavakkalchilik o'yinlari insonni qaram qilib qo'yishi va hayotining mazmuniga aylanishi ludomaniyada kuzatiladi. Oqibatda ishlashga, normal ijtimoiy muloqotga kirishishga intilish kuchayib jizzakilik, azart, va arzon dofaminga odatlanish inson hayotiga zarar keltiradi. Faqatgina stavka orqali pul ishlaganida va yutishga yaqinlashganida unda his etiladigan nafrat, quvonch, umidvorlik bilangina u hislarini ifodalab, oilaviy, kariyerasidagi muvafaqqiyatlar beradigan muvafaqqiyat va muammolar ahamiyatini yo'qotadi.

Jamiyat bunday muammoga ahamiyat bermagan holatda uning hayotiga bilvosita yoki bevosita ta'sir qila boshlaydi. Insonda jinoyatga moyillashuv psixologik, kriminologik soxa mutaxassislari tomonidan qimor bilan aloqadorligi borasida yetarlicha tahlillar bildirilgan. Bunda yutqazgan totalizator qurboni dastlab kichik qarzlarni olish va firibgarliklardan to'qotillik, talon-taroj, o'g'rilik kabi jiddiy huquqbuzarliklarga qo'l urgan holatlar kuzatiladi. Potensial jabrlanuvchi kim ekanligini aniq aytilish bu holatda qiyin kechadi. Yutqazgan stavkachilar suitsidga qo'l urish holatlariga ham ko'p duch kelingan.

Ko'plab davlatlarda bukmekerlar faoliyatini taqiqlash yanada ayanchli oqibatlarga olib keladigan yopiq faoliyatga aylanishi xavotirlari ularning faoliyatini legallashtirishga undamoqda. Bunda ularning faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlari saqlab qolinishiga erishilishi maqsad qilinadi. 2007 – yil 16-avgustdagi 176-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida qarori ayni maqsadlarga xizmat qiladi [5].

Demak, ludomaniyaga uchragan yoki yaqinlashgan insonga jamiyatning oqilona munosabat bilan cheklashi, qarshi tashviqotlarning amalga oshirilishi, jamiyatda tahliliy tafakkurni oshirishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Qimor reklamalarini boykot qilish, sport muxlislarining ishqibozligini qimor o'yinlari bilan aralashtirmaslik kabi jihatlarga e'tibor qaratish zarur. Qonuniy cheklovlar yoki jarimalar bilangina bukmekerlar faoliyatiga zarar yetkazish murakkab jarayon bo'lib

qoladi. Axborot asrida an'anaviy qarshi kurash bilan qotib qolish muammoni yanada chuqurlashtiradi.

Biznesda Forex, sportda 1xbet kabi platformalarga nisbatan faqat cheklov kiritish bilan emas, nega buning zahirida xavfli tanlov qilish mumkinligi mumkinligi anglatilishi kerak. Taqiqlarni mantiqiy va psixologik jihatdan ayanchli oqibatlardan saqlash uchun o'rnatilgani va virtual dunyoda qanday axborot manipulyatsiyalari mavjudligi asoslanishi lozim.

Xulosa

Sport olamida an'anaviy daromad manbalari bugungi davrda bukmekerlik daromadlari bilan qiyoslaganda sezilarli darajada pasaygan bugungi davrda sportga muxlislikni sog'lom ishqibozlik sifatida rivojlantirish zarur. Yosh avlodning bukmekerlik tashkilotlari haqidagi munosabatini holis va asosli shakllanishi uchun yetarlicha ijobiy axborot muhiti berilishi eng samarali choralardan biri hisoblanadi ushbu masalad.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *The Daily Telegraph Chronicle of Horse Racing* / ed. by N. Barrett. – Enfield, Middlesex: Guinness Publishing, 1995. – P. 10.
2. **Yuan H., Luo R., Wu Y., Zhao Z.** The Illusion of Control in Sports Betting: How AI-Framed Probability Influences Wagering Decision // Proceedings of ICFTBA 2025 Symposium: Strategic Human Capital Management in the Era of AI. – 2025. – P. 77. – DOI: 10.54254/2754-1169/2025.LD29418.
3. Schilhabel S. A. AI-Assisted Bettors: Analyzing AI-Driven Betting Behavior through Cluster Analysis // JMWAIS. 2026. – P. 2.
4. Zollinger, Manfred. Random Riches: Gambling Past & Present. Routledge, 2016-03-31 — p. 34.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 16.08.2007-yildagi 176-son // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik



ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – ID: 1238379. [Murojaat qilingan sana:
08.0.2026]